TA'LIM XIZMATLARI KO'RSATUVCHI SUB'EKTLAR FAOLIYATIDA KESH MENEJMENTINING TUTGAN O'RNI

Atajanov Baxrombek Utkirovich
Xorazm viloyati G'aznachilik xizmati boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
e-mail: bahrombek.a888@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyatida KESh menejmenti mazmuni, iqtisodiy mohiyati va amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, pul oqimlarini samarali boshqarish, daromad va xarajatlar muvozanatini saqlash hamda moliyaviy risklarni kamaytirishda KESh menejmentining o'rni asoslangan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание, экономическая сущность и практическое значение управления денежными потоками в деятельности организаций, предоставляющих образовательные услуги. Также обсуждается роль управления денежными потоками в обеспечении финансовой стабильности образовательных организаций, эффективном управлении денежными потоками, поддержании баланса доходов и расходов, а также снижении финансовых рисков.

Abstract. This article discusses the content, economic essence and practical significance of cash flow management in the activities of entities providing educational services. It also discusses the role of cash flow management in ensuring the financial stability of educational organizations, effective management of cash flows, maintaining a balance of income and expenses, and reducing financial risks.

Kalit so'zlar. Ta'lim xizmatlari, ta'lim tashkiloti, KESh menejmenti, pul oqimi, pul mablag'lari, moliyaviy boshqaruv, daromad, xarajat, likvidlik.

Ключевые слова. Образовательные услуги, образовательная организация, управление денежными потоками, денежный поток, фонды, финансовое управление, доходы, расходы, ликвидность.

Key words. Educational services, educational organization, cash flow management, cash flow, funds, financial management, income, expenses, liquidity.

Ta'lim xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida tashkilotlarning muvaffaqiyati ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifati va moliyaviy resurslardan qay darajada samarali foydalanishiga bog'liq bo'ladi. Chunki, ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyatining barqarorligi ko'p jihatdan ularning pul mablag'larini to'g'ri shakllantirishi va samarali taqsimlashiga bog'liq bo'ladi [1]. Bu holatda ta'lim tashkilotlarida o'quvchilar yoki talabalar to'lovlari, grantlar, davlat mablag'lari, ijara daromadlari, qo'shimcha ta'lim xizmatlari, malaka oshirish kurslari va boshqa manbalar hisobidan pul tushumlari shakllanadi. Biroq, ish haqi, soliqlar, kommunal to'lovlar, o'quv-uslubiy materiallar, bino va jihozlarni saqlash, axborot texnologiyalari, marketing va boshqa xarajatlar muntazam moliyalashtirib borilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, KESh menejmenti ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi sub'ektlarning moliyaviy boshqaruv tizimida vosita bo'lib hisoblanadi.

KESh menejmentining asosiy vazifasi mavjud pul mablag'larini nazorat qilish, pul oqimlarining kirimi va chiqimini muvofiqlashtirish, qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish hamda bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat [2]. "KESh menejmenti"

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tushunchasi amaliyotda tashkilotning pul mablag'larini boshqarish jarayonini anglatadi. Bunda asosiy e'tibor korxona yoki tashkilotning kassasidagi va bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni boshqarish, pul oqimlarini rejalashtirish, likvidlikni ta'minlash va moliyaviy majburiyatlarni bajarishga qaratiladi.

KESh menejmentini ta'lim tashkilotining strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilish orqali mavjud moliyaviy resurslarni ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirish imkoniyati kengayadi [3]. Bu bo'yicha ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi sub'ektlar uchun KESh menejmenti an'anaviy tijorat tashkilotlaridagi pul mablag'larini boshqarishdan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Chunki, ta'lim tashkilotlarining daromadlari ko'pincha mavsumiy xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, kontrakt to'lovlari o'quv yili boshlanishi yoki semestrlar kesimida ko'proq shakllanishi mumkin. Shu bois, ta'lim tashkiloti rahbariyati pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanish vaqtini oldindan hisobga olishi zarur. Agar pul oqimlari to'g'ri rejalashtirilmasa, tashkilotda daromad mavjud bo'lsa-da, muayyan davrda likvidlik muammosi yuzaga kelishi mumkin.

KESh menejmentining asosiy tarkibiy qismlarini quyidagi unsurlarga ajratiladi:

- pul mablag'larini rejalashtirish;
- pul tushumlarini prognozlashtirish;
- xarajatlar va to'lovlarni rejalashtirish;
- debitor qarzdorlikni boshqarish;
- kreditorlik majburiyatlarini nazorat qilish;
- minimal pul qoldig'ini aniqlash;
- ortiqcha pul mablag'laridan samarali foydalanish;
- pul oqimlari bo'yicha moliyaviy risklarni boshqarish.

Demak, KESh menejmenti faqat mavjud pul mablag'larini hisobga olish bilan cheklanmaydi. Ushbu menejment shakli tashkilotning kelajakdagi moliyaviy holatini oldindan baholash va moliyaviy resurslardan foydalanishni nazarda tutadi.

Shuningdek, KESh menejmentining ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyatidagi o'rni quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash. Tashkilotning joriy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi uning moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim omildir. Pul mablag'lari yetarli bo'lishi ish haqi, soliqlar, kommunal xizmatlar va boshqa majburiy to'lovlarni kechiktirmasdan amalga oshirish imkonini beradi.

- likvidlikni boshqarish. Ta'lim tashkilotida qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish uchun yetarli miqdorda likvid mablag' bo'lishi kerak. Ko'p miqdorda mablag'ni harakatsiz holatda saqlash esa iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanmaydi. Demak, KESh menejmentining vazifasi yetarli likvidlik va mablag'lardan samarali foydalanish o'rtasida muvozanatni ta'minlashdan iborat bo'ladi.

- moliyaviy risklarni kamaytirish. Pul oqimlaridagi uzilishlar ta'lim tashkilotining normal faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. KESh menejmenti orqali kelgusidagi pul tushumlari va xarajatlar oldindan prognoz qilinib, ehtimoliy moliyaviy yetishmovchiliklar aniqlanadi.

- investitsion imkoniyatlarni kengaytirish. Ta'lim tashkilotida ortiqcha pul mablag'lari shakllansa, ularni rivojlanish loyihalariga yo'naltirish mumkin. Masalan, yangi o'quv xonalari tashkil etish, zamonaviy texnologiyalar xarid qilish, raqamli platformalarni joriy etish va yangi dasturlarini ishlab chiqish mumkin.

- boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish. Pul oqimlari to'g'risidagi aniq va o'z vaqtida shakllangan ma'lumotlar rahbariyatga asoslangan moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ulardan tashqari, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslar zarur. Moliyaviy resurslarning mavjudligi zamonaviy o'quv jihozlarini xarid qilish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli, KESh menejmentini faqat moliyaviy-xo'jalik jarayoni sifatida emas, ya'ni ta'lim sifatini boshqarishning muhim iqtisodiy vositasi sifatida qarash mumkin.

Xulosa shuki, ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyatida KESh menejmenti moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, likvidlikni saqlash, pul oqimlarini muvozanatlashtirish va moliyaviy risklarni kamaytirishning muhim mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Bunda pul oqimlarini boshqarishning asosiy maqsadi faqat xarajatlarni qisqartirish emas, balki har bir sarflangan mablag'ning ta'lim xizmatlari sifati va tashkilotning kelajakdagi rivojlanishiga qo'shishi lozim. Shunday qilib, KESh menejmentini takomillashtirish ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligi, investitsion faolligi, raqobatbardoshligi va strategik rivojlanish imkoniyatlarini oshirish sharti bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пирогова О.Е. Управление денежными потоками: учебное пособие. - Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого, 2018. - с. 5-10.
2. Кузнецова И.Д. Управление денежными потоками предприятия: учебно-методическое пособие. - Иваново: ИГХТУ, 2008. - с. 60-71.
3. Жуков П.Е. Управление денежными потоками: практикум: учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2021. - с. 5-15.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.